

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**«TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH  
SAMARADORLIGI»**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami**

**2023-yil 20-oktabr Chirchiq, O'zbekiston**



**Chirchiq – 2023**

**«TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGI»** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
(2023-yil 20-oktabr Chirchiq, O'zbekiston)

**UO'K: 371**

**MAS'UL MUHARRIR:**

**Axmedov B.A.** – ChDPU

**TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**Muxamedov G.I.** ChDPU rektori, kimyo fanlari doktori, professor

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:** k.f.d. professor **Ziyadullayev O.E.**  
p.f.b.f.d.(PhD) **Axmadjanov D.B.**  
p.m.f.d. professor **Eshchanov B.X.**  
p.f.d.(DSc) professor **Maxmudova D.M.**  
p.f.b.f.d.(PhD) **Boymurodov A.X.**  
p.f.b.f.d.(PhD) **Xurramov A.X.**  
Katta o'qituvchi **Sultonov R.O.**  
Katta o'qituvchi **Xalmetova M.X.**  
Katta o'qituvchi **Djamirzayev A.A.**  
Katta o'qituvchi **Kuralov Yu.**  
O'qituvchi **Ibodullayev D.**  
O'qituvchi **Rajabov O.T.**

**TAQRIZCHILAR:**

**Mamarajabov M.E.** - p.f.d., professor

**Radjabov B.Sh.** - t.f.d., professor

**Akylbayev M.T.** – t.f.n., dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi "2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 118-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida 2023 yil 20 oktyabr kuni Chirchiq shahrida (Chirchiq davlat pedagogika universitetiida) «Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat.

To'plamda joy olgan tezislarda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligiga mualliflar javobgardirlar.

- mavzularning ketma-ketligi, mantiqiyligi, bosqichma-bosqich davom qilishi;
- o'quv jarayonining har bir bosqichida ishtirokchilarning o'zaro harakat usullari ko'rsatilishi;
- o'qituvchining eng samarali o'qitish vositalaridan foydalanishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining motivatsion ta'minlanishi, bu jarayonda ularning shaxsiy-kasbiy funksiyalarining namoyon bo'lishi (erkin tanlash, kreativlik, bahslashuv va h.k.

Informatika fanidan laboratoriya va amaliy ishlar metodi esa yuqorida ta'kidlanganidek talabalarning mustaqilligini rivojlantiradi, o'quv materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi, fanga oid umumiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

### **Adabiyotlar**

1. Normurodov, A., O'rishov, A. (2021). Comparative analysis of technologies for the development of optical networks. InterConf, 685-688.
2. Боймуродов, А. Х., & Азимкулов, С. Н. (2021). ТАЪЛИМ САМАРАДАОРЛИГИГА ЭРИШИШДА ТИЗИМДА ИННОВАЦИОН УЛУЛЛАР. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(4), 839-843.
3. АЗИМҚУЛОВ, С. (2021). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ТАШКИЛ КИЛИШДА ҚУЛЛАНИЛАДИГАН ЎҚИТИШ УСУЛИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ, 2(1), 54-57.
4. Азимкулов, С. Н. (2021). КЛАСТЕРНЫЙ ПОДХОД И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В НАУЧНО- ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 826-861.
5. Azimqulov, S. N. (2020). ZAMONAVIY TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI. ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИ, 4(44), 124-126.
6. Boymurodov, A. X., Azimqulov, S. N., & Davlatova, A. R. (2021). ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1389-1395.

## **TALABALARNING AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA MUSTAQIL ISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**Qobilov T.A**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, Chirchiq, O'zbekiston

Matematika fanini o'qitishda masalaning ahamiyati juda katta bo'lib, talabalarda matematikaga bo'lgan qiziqishini orttirish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayonida amaliy va nostandart xarakterdagi masalalardan foydalanish maqsadga muvofiq . Dars jarayonlarida kuzatilgan kamchiliklardan biri, talabalar o'xshash masalalarni bir xil usuldan foydalangan holda yechishadi yoki matematika fanini anglamasdan turib, formulalarni shunchaki yodlagan holda (yondaftardan foydalanib) test topshiriqlarini bajarishadi.

Shu bilan birga pedagogik va matematik tadqiqotlarda mustaqil ish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan vazifalar aniqlangan, ammo ular ta'lim tizimida yetarlicha yoritilmagan, amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqilmagan. Talabalarning mustaqil ish faoliyatini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlanmagan.

Ta'lim yo'nalishlarining amaldagi o'quv rejalarida ayni bir fan uchun belgilangan umumiy o'quv soati ikki qismga: auditoriya va mustaqil ish faoliyati soatiga ajratilgan. Auditoriya soati o'quv rejalarida

auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya ishlari) uchun taqsimlangan holda berilgan. Mustaqil ish faoliyati soati yaxlit holda berilgan bo'lib, talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini qanday materiallar asosida yo'lga qo'yish har bir fanning o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqib bu fan o'qituvchilarining uquvi, bilimi tajribasi va pedagogik mahoratiga havola qilingani holda mustaqil ish faoliyati soatlarini bajarish tavsifi va ko'rsatmalar bir qator meyoriy xujjatlarda berildi.

Mazkur loyiha doirasida oliy ta'lim tizimida mustaqil ish faoliyati talabalarning bilim olishdan maqsadlari va shu maqsadlarga qanday erishishlari – mavjud o'quv resurslardan foydalangan holda amaldagi o'quv dasturlari doirasidagi materiallarni qanday o'zlashtirishlari bo'yicha mustaqil qaror qabul qilishlarini nazarda tutadi. O'qituvchilar talabalarni ta'lim olishdagi individual strategiyalarni shakllantirish bo'yicha talabalarning intilishlarini olqishlash va to'g'ri yo'naltira olishlari lozim. Talaba yakka holda samaraliroq ishlaydimi yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi, talaba vaqtini kutubxonada o'tkazadimi, yoki unga Internet tarmog'idagi mavjud elektron materiallardan foydalanish qulayroqmi – mustaqil ish faoliyati sharoitida talaba ishni qanday qilib yaxshiroq, samaraliroq va qulay-roq tashkil etish kerakligini o'zi yaxshi bilishi kerak. Talaba olgan bilimlari sifatiga javobgarlikni o'ziga olishi kutiladi.

Odatda talaba o'qituvchini bilim o'chog'i hamda talabani qanday bilim olishini yaxshi bilguvchi inson sifatida qabul qiladi. Haqiqatda esa o'qituvchi talabalarni oliy o'quv yurtida o'qishi davomidagina ularga javobgar bo'ladi, lekin u har doim ham uning yonida bo'ladimi? Talaba o'quv dargohini tamomlaydi va bir o'zi o'z kelajagi bilan qoladi. U mehnat faoliyatini boshlaydi, u yerda u va faqat u olgan bilimlarini ko'rsatib, amaliyotga tadbiiq eta olishi kerak bo'ladi. Davlatimizdagi zamonaviy iqtisod qonuniyatlari o'z shartlarini ilgari surmoqda va shuning uchun bilimga faqat egalik qilish bilan chegaralanib bo'lmaydi. Zamon bilan hamnafas bo'lish, mustaqil qaror qabul qila olish, o'z ustida doimiy ravishda ishlash, o'z malakasini oshirib borish darkor. Shuning uchun talaba yoshlarning yangi avlodini mustaqil qaror qabul qila oladigan, bilim olishiga o'zi mas'ul bo'la oladigan qilib tarbiyalash ehtiyoji sezil-moqda.

Mustaqil fikrlaydigan talabalarni tarbiyalash davlatimiz ta'lim ti- zimining asosiy maqsadlaridan biridir. Manbai faqatgina o'qituvchi ma'ruzalarida berayotgan mavzular bo'lishi kerak emas.

Talaba o'zi anglashi va harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, talabalarning izlanishlarni o'rganish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim. Ba'zan mustaqil holda o'qish va mustaqil ish faoliyati tushunchalari adashtiriladi.

Mustaqil holda o'qish rasmiy o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni muayyan o'quv yurtiga bormay turib, uyda o'z materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qish, ta'lim olish mumkin. Bu qiziq pedagogik hodisa bo'lsada, ushbu loyihada mustaqil holda o'qish (o'quv yurtiga bormay turib ta'lim olish) o'rganilmaydi. Mazkur loyiha doirasida mamlakatimiz kelajagi uchun mustaqil fikrlaydigan, bilimli va malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida rasmiy oliy ta'lim tizimida mustaqil ish faoliyati unsurlarini tadbiiq etish va rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ish faoliyatini takomillashtirishda quyidagi mustaqil ish turlaridan foydalanish mumkin:

takrorlash va masalalar yechish. Takrorlash va mashq qilishda pedagog dars paytida olgan bilimlarini takrorlaydi, tahlil qilib, umumlashtirib, fikrlab ko'radi, eslab qoladi, amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmalari va malakalarini shakllantiradi.

yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish. Bunda talaba axborot manbalarini izlab topish, ular ustida ishlash, konspektlashtirish, fikrlarni izchil bayon qilish bo'yicha ko'nikmalarni egallaydi, mustaqil ish

faoliyati usul va uslublarini o'rganadi.

ijodiy xarakterdagi ishlarni bajarish. Bunda talaba muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish, mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi, masalani hal qilishga ijodiy yondashishga o'rganadi, ko'rgazmali vositalar tayyorlash, ilmiy tavsifdagi izlanishlarni talab qiladigan topshiriqlarni hal qilish yo'llari bilan tanishadi.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ish faoliyatini takomillashtirishda foydalaniladigan o'quv vositalarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: tashkiliy vositalar; o'quv texnologiyalari, o'quv-metodik materiallar; didaktik materiallar; axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari; texnik o'quv vositalari.

Shunday qilib, oliy ta'lim tizimida mustaqil ish faoliyatini takomillashtirishning maqsadini belgilab olish, shunga binoan mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini kafolatlovchi zamonaviy usul va uslublari hamda shakl va vositalarini belgilab olish mustaqil ish faoliyati ni to'g'ri tashkil etishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Janabergenova A. Matematikadan talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish uslubi // Ta'lim, fan va innovatsiya. / Ma'naviy- marifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent. – 2018.
2. Shodmonova Sh.S.Oliy o'quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (Kasb ta'lim yo'nalishi misolida) Ped.fan.dok....dissert.-T:2010-340b.
3. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011, – 200 b.
4. Janabergenova A.J. Axborotlashgan ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ish faoliyati metodikasini takomillashtirish. Monografiya, Toshkent 2023, – 143.

## **PRINCIPLES OF IMPLEMENTING A COMPETITIVE STRATEGY IN THE DIGITAL ECONOMY OF UZBEKISTAN DURING THE DEVELOPMENT PERIOD**

**Raupova M.Kh.**

Teacher at Chirchik State Pedagogical University

After Uzbekistan gained independence, the policy of socio-economic stabilization was developed under the leadership of the first President of Uzbekistan I.A. Karimov in order to bring the country's economy out of a deep recession and ensure its macroeconomic stability. The effectiveness of this policy has been demonstrated in the thirty-two years since independence.

After Uzbekistan gained independence, economic growth has been developing in our country. It is a fact: there is no development where there is no competition. Because if a competitive environment is not created in economic processes, the level of monopolization will increase. To create a competitive environment, the state must pursue an antimonopoly policy, take measures to remove the economy from monopoly, and create a legislative framework in this direction. In any country that has transitioned to a market economy, healthy competition and fair trade rules play a very important role. Because healthy competition increases productivity, creates new jobs, develops innovation and, most importantly, ensures consumer welfare. Healthy competition leads to lower prices and higher quality of goods and services. Our committee is entrusted with a wide range of tasks and tasks in this direction, and maximum attention is paid to them.

The modern economy is becoming a digital economy. After all, we live in an age of development, and it is impossible to describe our life without modern technologies. Today, the Internet brings convenience to the whole world. The digital economy is designed to meet the demands of the times. The

<b>BIOTEXNOLOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISH SISTEMASINING ALGORITMIK STRUKTURASINI ISHLAB CHIQISH</b>	
Khonsaidova Maktuba MODERN TEACHING TOOLS AS A MEANS OF STUDENT DEVELOPMENT	243
Mamatova Aziza Maxamatdjonovna, BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING RAQAMLI TIZIMI	245
Jo'rayev Firdavs Umed o'g'li Xasanova Raxila XXX KRIPTROGRAFIYA SOHASINING KELIB CHIQISHI	248
Quranboyeva Muxarram Shavkat qizi O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAM VOSITALAR	249
Jo'rayev Firdavs Umed o'g'li Xasanova Raxila MEKANIK MASHINALARGACHA BO'LGAN DAVR	251
Kamaladin Kuronboevich Matyukubov Yusupov Muxtorbek Rohimovich TEKHOLOGIK TA'LLIMNING "STEM" BILAN ALOQADORLIGI	252
B.Sh.Radjabov MATEMATIK TIZIMIDAN FOYDALANISHNI SAMARALI RIVOJLANAYOTGAN YO'NALISHLAR	255
Namozov Shahrosul THE SIGNIFICANCE OF DIGITAL ITEMS IN TEACHING	257
O'rishov A.N. TALABALARNI MUSTAQIL IZLANISHLI FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI	259
Qobilov T.A TALABALARNING AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA MUSTAQIL ISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	261
Raupova M.Kh. PRINCIPLES OF IMPLEMENTING A COMPETITIVE STRATEGY IN THE DIGITAL ECONOMY OF UZBEKISTAN DURING THE DEVELOPMENT PERIOD	263
Rustamova Sh.A. Ubaydilloyeva M.U OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA FLIPPED CLASSROOM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	266
Rustamova Sh.A TALABALARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MAXSUS TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	268
Исломов С. М. ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СРЕДСТВАМИ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.	271
Tenelbayev R. THE ROLE OF NEW DIGITALS IN TEACHING PROCESS	272
Rizayev Odiljon Baxtiyor o'g'li WI-FI QAMROVINI UZAYTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	275
Tolibayeva Q.Q TA'LIM JARAYONIDA SMART TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	278
Usmonova R.B NAZORAT ISHLARINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	280
Жолдасов Ихтиёр Суюндикович ЎҚУВ ЖАРАЁНИГА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТЛАРИ	283
Илмуродова Феруза Шокировна ДАВЛАТ ИНСТИТУТЛАРИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ИНСОН ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ	286
Maxkamova Madina Ulfatjonovna PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INFORMARIKA O'QITUVCHISI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY TIZIMI	288
Yuldasheva Gulshad Tileuovna Muxammadieva Bashorat Islomboevna TALIM JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNLI TUZILMASI	290
Yuldasheva Gulshad Tileuovna Ziyayeva Muhayyo Ibrohimjon qizi TALIM JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	292
Yuldasheva Gulshad Tileuovna Abduqaxxorov Muxriddin Qaxramon o'g'li KLASTERLI YONDOSHUV ASOSIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	295
Niyozov S.R AN'ANAVIY VA RAQAMLI TA'LIMDA PEDAGOGIK DIZAYN VA UNING XAVFSIZLIGI	306
Юсубалиев А СОРТИРОВКА ХЛОПКА-СЫРЦА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ХЛОПЧАТОБУМАЖНОЙ ТКАНИ	317
Sh.Sh.Allamova D.A.Abdulhayotova O'QUV JARAYONINI ARALASH TA'LIMNING FLIPPED CLASSROOM VA STATION ROTATION MODELI ORQALI TASHKIL ETISH METODIKASI	320
Atamuradova Dilshoda Ravshanqulovna TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	323